



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 18-iyul, № 146 (9041)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga

INKOR ETIB BO'LMAS HAQIQATLAR

Mustaqilligimizning 34 yilligi munosabati bilan tashkil etiladigan tadbirlar "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan hayotbaxsh g'oya ostida nishonlanishi belgilandi va yurtimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, bayram tadbirlarini ko'tarinki ruhda o'tkazish borasida chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Bu yilgi tantanalari "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassamlagan g'oyaviy-badiiy konsepsiya asosida bejiz nishonlanmayapti. Chunki o'tgan davr mobaynida amalga oshirilgan har bir islohot, o'zgarish zamirida inson va uning manfaatlarini yotibdi. Qolaversa, O'zbekistonning dunyoga ochilgani, yaqin qo'shnilar bilan tarixiy rishtalarning tiklangani, xalqaro miqyosda ilg'or tashabbuslarni dadil ilgari surayotgani va ko'p millatli xalqning Prezident atrofida birlashib, so-bitqadam ildamlayotgani ham mana shu xalq, mana shu Vatan ravnaqi uchundir.

Haqiqatan ham, shu aziz yurt fuqarolari sifatida har birimizning hayotimizda, oilamizda, mahallamizda, mehnat jamoamizda yoki ilmiy-ijodiy faoliyatimizda yuz bergan o'zgarishlardan quvonmaslik, g'ururlanmaslikning iloji yo'q.

Ayniqsa, so'nggi sakkiz yilda shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarib, xalqimiz turmush darajasining ortib borayotgani Prezidentimizning sa'y-harakatlari, jo'shqin ish

faoliyati, uzoqni ko'ra bilishi va xalqchil, ijtimoiy yo'naltirilgan siyosati mahsulidir.

O'tgan davrda iqtisodiyotni liberallashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini kuchaytirish, valyuta bozorini erkinlashtirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kompleks rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotgani inkor etib bo'lmaz haqiqatlardir. Yoki tadbirkorlarning o'z biznesini rivojlantirish uchun erkinlik va yangi-yangi imkoniyatlarga ega bo'layotgani-yu, dehqon va fermerlar, klaster xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan hosilning haqiqiy egasiga aylanayotgani kabi holatlarning sanab adog'iga yetolmaymiz.

Sakkiz-to'qqiz yil oldin boshlangan bunday xayri amallar samarasi bugun mamlakatda tadbirkorlikning ravnaq topib borayotgani, yangi-yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilgani, aholining salmoqli qismi shu sohada mehnat qilayotganida namoyon bo'layotir.



QADRIYATLARIMIZNI YUKSALTIRAYOTGAN ULUG' NE'MAT

Yildan-yilga tobora kengayib, mustahkam ildiz otayotgan va xalqimiz hayotining barcha jabhasida o'z ifodasini topayotgan Mustaqillik — bu Vatanning faqat siyosiy emas, ma'naviy istiqloli hamdir. Prezidentimizning yaqinda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori bu ne'matga bo'lgan chuqur ehtiromning, mustahkam tarixiy saboqlarning va yangi yuksalishlarga intilishning yana bir yaqqol ifodasi bo'ldi.

Qarorda alohida ta'kidlangan muhim jihat — bu ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, do'stlik va hamjihatlik muhiti. Bu so'zlar shunchaki shior emas, balki yurtimizdagi har bir insonning kundalik hayoti, ichki osoyishtaligi va kelajakka bo'lgan ishonchi uchun asosiy poydevordir.

Bugungi kunda yurtimizda 130

dan ortiq millat va elatlar, 16 ta turli konfessiya vakillari bag'rikenglik, o'zaro hurmat va hamjihatlik asosida bir oiladek yashamoqda. Masalan, bir mahallada qo'shni bo'lib yashovchi o'zbek, rus, ko-reys, tojik yoki tatar millatiga mansub aholi farzandlarini bir maktabga olib boryapti, bir xo'jalikda yelkadosh bo'lib mehnat qilaypti.



QUTLUG' QADAMNING HAYOTBAXSH ZIYOSI

Nukus shahrida yashovchi Azat og'a Niyetullayev ikki kun oldin qo'ng'iroq qilib qoldi. Salom-alikdan so'ng maqsadini aytdi: — Qo'shim, (qoraqalpoq tilida yoshi katta kishilar o'zidan kichiklarga muloqotda qo'llaydi) xabaring bor, gazetalarini mahalla idorasida o'qirdim. Mahalla keyingi 6 oyga obuna bo'lmagan ekan. O'zing o'qib beradigan gazetalaridan menga ham keltirib tursang, yangiliklardan bexabar qolmay deyman-da, bolam! Bilasan,

bugun dunyo terak uchidagi qush uyasidagi qalqib turibdi. Yaqin Sharqdagi qon to'kilishlar, Isroil, Eron, Falastinda ro'y berayotgan voqealarga befarq bo'la olmayman. Ularni o'qib, gohida ko'zimga yosh keladi. U yurtlardagi sargardonlik, ochlik, tanqislik, judoliliklar haqida o'qib, yurtimizdagi tinchlikka ko'z tegmasin deymen. Qo'limni duoga ochib Yurtboshimizning boshi omon bo'lsin, elimizdagi farovon hayot, to'kinlik, bag'rikenglik va osoyishtalik bardavom bo'lsin deymen, o'g'lim! Bu bilan cheklanib qolmayman, yoshlar o'rtasida tinchlikning qadriga yetish, ilm olish, kasb o'rganishni targ'ib qilaman. Axir bu biz, keksalarning vazifasi-ku!

Azat og'a yoshi ulug' bo'lsa-da, imkon qadar barcha gazetani qoldirmay o'qib borish-

ga odatlangan. Biror kun gazeta o'qimasa, nimanidir yo'qotgandek yuradi. O'zi keksa pedagog, ko'p yil o'qituvchi bo'lib ishlagan. U kishi bilan 23 yil oldin tanishganman va gazetada yoritiladigan mavzular haqida ko'p gurunglashamiz. Hozirgi kunda ham telekanallarda axborot dasturlarini kuzata turib yoki matbuotda o'qiyotib biron noaniqlikni sezsa, darhol telefon qilib, savollarga ko'mib tashlaydi.

Ishdan so'ng gazetaning oxirgi sonlarini olib, Azat og'aning uyiga yo'l oldim. Yo'lakda qurilish materiallariga ko'zim tushdi. Uyidan chiqib kelayotgan og'a eshigi oldidagi o'rindiqqa ishora qildi.



DEPUTATLAR FARMATSEVTIKA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID TAKLIFLARNI ESHITDI



Qonun ijodkorligi — murakkab jarayon. Har jihatdan pishiq, puxta tayyorlangan qonunlar barcha sohadagi muammo va masalalarni yechishga, ularni jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Bahs-munozara, taklif va tavsiyalar asosida yetilgan normalar esa ijtimoiy ehtiyojlarni qondiradi. Albatta, bu jarayonda sifat va xalqchilik juda muhim. Zero, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, hayotning o'tkir talablariga javob beradigan, sifatli, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish Oliy Majlisning eng muhim vazifasi, kerak bo'lsa, uning obro'sidir.

Xalqchil yondashuv

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qonun ijodkorligi faoliyati yo'nalishida xalqchil qonunlarni qabul qilishga mas'ullik bilan yangicha yondashib, hujjat loyihalarini ishlab chiqish va takomillashtirishda soha vakillari, mutaxassislar, ekspertlar bilan doimiy va uzviy hamkorlikda ishlamoqda.

Shu maqsadda kecha Mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy masalalar qo'mita-

si a'zolari "ROMFARM NS" qo'shma korxonasida bo'lib, farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mas'ullar, Sog'liqni saqlash vazirligi, Farmatsevtika sohasini rivojlantirish agentligi, Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi, Toshkent farmatsevtika instituti vakillari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazdi.

Unda mahsulot ishlab chiqarish va ular bilan aholini ta'min-

lash masalalari hamda tizimdagi mavjud muammo va takliflar muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbarining shu yil 28-yanvardagi "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni soha rivojida muhim asos bo'lmoqda. Hujjatda farmatsevtika tarmog'idagi islohotlarni yanada jadallashtirish va aholini sifatli dori vositalari bilan ta'minlash bo'yicha qator vazifalar belgilangan. Mahalliy farmatsevtika korxonalari quvvatlarini oshirish, sohaga texnologiyalar transferini joriy etish tizimini takomillashtirish masalasi ana shulardan biridir.

Uchrashuvda farmatsevtika sohasiga texnologiyalar transferini tatbiq qilish mexanizmlari xususida fikr bildirilib, uni amaliyotda qo'llashda qonunchilgimizdagi ayrim bo'shliqlar mavjudligi aytiladi. Deputatlar, farmatsevtikar, olim va mutaxassislar bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalarni bildirdi.



O'ZBEKISTON — MARKAZIY OSIYODAGI ENG XAVFSIZ DAVLAT

"Numbeo" portali tomonidan e'lon qilingan jinoyatchilik va xavfsizlik indekslariga ko'ra O'zbekiston dunyodagi eng xavfsiz 25 ta mamlakat qatoridan joy oldi.

Aytilishicha, yurtimiz 73,4 ballik xavfsizlik indeksi bilan 148 ta davlat orasida 25-o'rinni egalladi. Yana bir muhim jihat, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng xavfsiz davlat sifatida e'tirof etildi.

E'tirof

Ma'lumot o'rinda aytish joizki, xavfsizlik indeksini hisoblashda "Crime Index" (Jinoyat ko'rsatkichi) va "Safety Index" (Bexatarlik ko'rsatkichi) asosiy mezon qilib olingan.

2024-yilda 71 ball bilan 27-o'rinda bo'lgan mamlakatimiz 2025-yilning birinchi yarmi yakunlari bo'yicha tuzilgan reytingda o'z o'rnini 2 pog'onaga yaxshilagan. Qozog'iston 73-o'rinda (54,4 ball), Qirg'iziston esa 101-o'rinda (48 ball) qayd etilgan. Turkmaniston va Tojikiston reytingda qatnashmagan.

O'zbekiston xavfsizlik darajasi bo'yicha Chexiya, Shveysariya, Janubiy Koreya, Avstriya va Polsha kabi davlatlarni ortda qoldirdi.

Reytingning yuqori qismidan Birlashgan Arab Amirliklari, Andorra, Qatar va Tayvan kabi mamlakatlar joy egallagan bo'lib, ular eng xavfsiz davlatlar ro'yxatini boshlab beradi. Eng xavfli davlatlar sifatida Gaiti, Papua-Yangi Gvineya, Venesuela, Afg'oniston va Janubiy Afrika Respublikasi ko'rsatilgan.

Sanjar SHOMURODOV
("Xalq so'zi").

YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI O'zgarishlarning beqiyos samaralari

Bu yilgi Mustaqillik bayrami Prezidentimizning shu yil 10-iyuldagi qaroriga muvofiq "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oyani o'zida mujassam etgan badiiy konsepsiya asosida nishonlanayotgani bejiz emas.

Istiqlol yillari, ayniqsa, keyingi to'qqiz yil mamlakatimiz uchun har tomonlama yuksalish, taraqqiyotni yangi pog'onaga ko'tarish, eng muhim, insonga munosabatni o'zgartirish, uni qadrlash, qalbiga yo'l topish, orzu-umidlari ro'yobiga qulay shart-sharoitlar yaratish davri bo'ldi.

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun chinakam tarixiy davr!

Xalq deydi...

Bu davrda yuz bergan yangilanishlar shahar qishloqlarimiz qiyofasida ham, odamlarimizning tafakkuri, ongunda dunyovarashida ham tom ma'noda o'zgarish yasadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, bugun xalqimiz — kechagi xalq emas. O'zbekiston ham kechagi O'zbekiston emas.

Bugun tobora chiroy kasb etayotgan hududlarda yurtdoshlarimiz qaynoq mehnat jarayonlari bilan mashg'ul. Eng chekka qishlog'ul ovullarda ham bo'sh

o'tirgan, maqsad-rejasiz ko'cha-ko'yda yurgan biror kishini uchratmaymiz. Insonlar bugunini kechasidan, ertasini bugunidan yaxshiroq, hayotini to'kisroq, farog'atliroq qilish ilinjida ter to'kmoqda. Shu orqali xonadoniga baraka kiritaypti. Jamiyatga nafi tegmoqda. Mamlakat taraqqiyotiga baholi qudrat xizmat qilmoqda.

Ulug' bobokalonimiz hazrat Alisher Navoiy "El g'ussasini singurmaging maqsud et, Bu sheva bila oqibatning mahmud et", deb yozarkan, insondagi el-yurt taqdiriga daxldorlik hissining ana shu mo'jizaviy qudratini alqagan edi.

3- sahifaga qarang ➡

INKOR ETIB BO'LMAS HAQIQATLAR



Davlatimiz rahbarining odilona siyosati, xalqimizning bunyodkorligi evaziga tarix uchun qisqa bir davrda barcha sohada, asosiysi, odamlar hayotida ayni islohotlarning amaliy natijalari namoyon bo'la boshladi. Barcha o'zgarish va yangilanishlarning markaziga inson va uning manfaatlarini qo'yildi.

Tarixan qisqa davrda mamlakatimiz erishgan yutuqlar bizning haqiqatan ham uchinchi Renessans paydoirini barpo etishga qodir ekanimizni, mana shunday sur'at va qat'iyat bilan harakat qiladigan bo'lsak, ulug' maqsadlarimizga, albatta, yetib borishimizni yaqqol namoyon etmoqda. Mustaqillik yillarida aholi o'rtasida va

davlat idoralarida tadbirkorlarga munosabat o'zgardi. Jamiyatda ularning obro'si va mavqei kun sayin ortib boryapti. Chunki mulk va mulkdorlar, xususi sektor vakillarining huquq va manfaatlarini qonun yo'li bilan himoya qilinishi yanada mukammallashtirdi. Ana shulardan kelib chiqib "xususi mulk daxlsizligi", "iqtisodiy faoliyat erkinligi" singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar yangi O'zbekistonda real voqeikka aylanib boryapti deb dadil aytay olamiz. Davlatimiz rahbari imzolagan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaror har birimizni 34 yil oldingi tarixga bir bor teran nigoh tashlashga, istiqbol mas'uliyatini chuqurroq anglashga va yurt taraqqiyotiga yanada ko'proq hissa qo'shishga chorlaydi.

Munajatxon YO'LCHIYEVA,
O'zbekiston Qahramoni,
Oliy Majlis Senatining Yoshlar,
xotin-qizlar, madaniyat va sport
masalalari qo'mitasi a'zosi.

Seminar

USTUVOR YO'NALISHLAR
BO'YICHA MUHOHAZALAR
BILDIRILDI

Avval xabar berganimizdek, joylarda "Mahalliy Kengashlar faoliyatini namunali tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari: muammo va yechimlar" mavzuida o'quv seminarlari uyushtirilmogda.

Bu galgi tadbirlar Buxoro viloyatining Vobkent hamda Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanlarida bo'lib o'tdi.

Xususan, Vobkent tumanidagi tadbirda xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari faoliyatini namunali tashkil etish mezonlari mahalliy Kengashlar deputatlari, kotibiyat xodimlari hamda faol jamoatchilik vakillariga tanishtirildi.

Shuningdek, Qiziltepa tumani hokimligida bo'lib o'tgan seminar doirasida tashkil etilgan sessiyalarda 15 ga yaqin mavzularda ma'ruzalar eshitildi.

Muloqot davomida deputatlar, kotibiyat xodimlari va soha mutaxassislari tomonidan mahalliy Kengashlar faoliyatini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, aholiga yaqin bo'lishini ta'minlash, nazorat funksiyalarini kuchaytirish bo'yicha fikr va mulohazalar bildirildi.

Seminarlarda mahalliy Kengashlar faoliyatini samarali tashkil etishga doir ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taklif va tavsiyalar bildirildi.

"Xalq so'zi".

DEPUTATLAR FARMATSEVTIKA
FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID
TAKLIFLARNI ESHITDI

Noiba INOYATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati:

– Qonunlarni ishlab chiqish jarayonida xalqimiz bilan bamaslahat ishlash, jamoatchilik fikrini tinglash, mutaxassislar xulosalarini hisobga olish va har bir hujjatning amaliy natijalarini oldindan aniqlash muhim. Bunday yondashuv mavjud qonunlardagi bo'shliqlarni ilg'ash hamda ularni to'ldirib, maromiga yetkazishga xizmat qiladigan asosli taklif va tashabbuslarni ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda biz, deputatlar "ROMFARM NS" qo'shma korxonasi bo'lib, uning faoliyati bilan tanishdik. Ushbu korxona Yevropa "GMP" sertifikatiga ega bo'lib, "Rompharm SRL" (Ruminiya) bilan

hamkorlikda ishni yo'lga qo'ygan. Aynan Ruminiya texnologiyalarini ishlatgan holda dori vositalari va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarishga moslashtirilgan. Korxonada texnologiyalar transferini yo'lga qo'yish jarayonini o'rgandik. Albatta, bu bo'yicha xulosalarimiz bor. Shu asosda amaldagi qonunchilikka tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish talab etiladi. Ayni vaqtda deputatlar va tashabbuskorlar o'rtasida o'rganishlar olib borilyapti.

Murod NOSIROV,
"ROMFARM NS" qo'shma
korxonasi rahbari:

– Deputatlar korxonamiz faoliyatini o'rganib chiqishdi. Va jarayon bilan yaqindan tanishdi. 2020-yilda xorijdan investorlar topib farmatsevtika sohasida texnologiyani transformatsiya qilib, yangi yo'nalish bo'yicha ishlab chiqarish korxonasi qurilishini boshlaganmiz. Huquqiy amaliyotdagi

kichik muammo, ya'ni qonunchilik tablari to'la yetishmayotgani bugungi kunda bu boradagi ishlarimizga sezilarli ta'sir ko'rsatmogda.

Deputatlar holat bilan tanishib, o'z fikr-mulohazalarini bildirganidan, takliflarimizni eshitganidan xursandmiz.

Ulug'bek USMONOV,
farmatsevtika fanlari doktori:

– Qonunchilik palatasi deputatlari bilan muloqotimiz juda qizg'in va samarali bo'ldi.

Suhbat chog'ida korxoning imkoniyatlari haqida batafsil fikr almashildi. Biz, olimlar, ushbu yo'nalishdagi ilmiy xulosalarimiz bilan o'rtoqlashdik. Farmatsevtika sohasiga texnologiyalar transferini qo'llash mahalliy farmatsevtika korxonalari quvvatini, tibbiy buyumlar importi va eksportini oshirishga, eng muhimi, aholimizni sifatli dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

EKOLOG OLIMLAR QONUNCHILIKKA DOIR
TAVSIYALAR BERISHDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi hamda Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish masalalari bo'yicha komissiya hamkorligida ekologiya sohasidagi olim va tadqiqotchilar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Bunday formatdagi muloqot, eng avvalo, xalqchil qonunlarni qabul qilishda mutaxassislar, soha vakillari va ekspertlarning taklif va tavsiyalarini kengroq eshitish maqsadiga qaratilgan.

Qonunchilik palatasi deputatlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, Botanika va Zoologiya institutlari olimlari, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining qizg'in bahsi muloqotning o'ziga xos ruhini aks ettirdi.

Bugungi global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari sharoitida mamlakatimizda ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil maydonlarni ko'paytirish, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Sohaga oid ko'plab qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmogda. Natijada

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarmogda. Ammo hali yechimni kutayotgan masalalar, muammolar ham mavjud. Muloqotlar ayni shu masalalar yechimiga qaratildi. Xalq vakillari barcha ishtirokchilarning fikrlarini eshitdi.

Doniyor TURG'UNOV,
Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti direktori:

– Bunday format juda muhim va barchamizning mushtarak maqsadlarimizni ifoda etadi. Ekolog olimlar hamjamiyatini tuzish, iqlim muammolarining oldini olishga oid takliflar bildirildi.

Ekologiya sohasidagi qonunchi-

likni takomillashtirishda olimlarning izlanishlari va xulosalari ko'proq eshitilayotgani, albatta, bizni quvontiradi. Uchrashuvlarimiz ko'proq bo'lsa, natija ham shunga yarasha o'sadi.

Shuhrat FAYZIYEV,
Toshkent davlat yuridik
universitetining Ekologiya
huquqi kafedrasini professori:

– Har qanday jarayon, shu jumladan, qonun ijodkorligi ham innovatsion yechimlarga tayanadi. Bugungi ochiq muloqotda ekologiya sohasidagi qonunlarni yaxlit bir hujjatda mujassamlashtirish, qonun hujjatlarida cho'llanishga qarshi kurashish normasini mustahkamlash bo'yicha takliflarimni berdim. Umuman, mana shunday ochiq munozaralarda ko'tarilgan takliflar qonun loyihalarining huquqiy va amaliy jihatdan puxta bo'lishiga xizmat qiladi.

Uchrashuvda mutaxassislar, olimlar tomonidan berilgan o'ndan ortiq takliflar qonun ijodkorligi jarayonlarida ko'rib chiqilishiga kelishib olindi.

"Xalq so'zi".

MUROJAATLAR
BIRGALIKDA
HAL QILINDI

Mamlakatimiz hududlarida istiqomat qiluvchi fuqarolar o'z muammolariga yechim izlab Oliy Majlis Senati va senatorlar nomiga turli masalalarni qamrab olgan murojaatlar yo'llaydi. O'z navbatida, senatorlar tomonidan uchrashuvlar uyushtirilib, ularning arzlari tinglanadi. Aksariyat hollarda murojaatlar joyida o'z yechimini topadi.

Senator va hayot

Kecha Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orzigul Qozixonova navbatdagi fuqarolar qabulini o'tkazdi.

Unda respublikamizning turli hududlaridan kelgan 21 nafar fuqaro uy-joy bilan ta'minlash, yer uchastkalariga oid nizolar, atrof-muhit muhofazasi, ta'lim sifati, ijtimoiy himoya, moddiy yordam, maktab infratuzilmasi va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi masalalar yuzasidan murojaat qildi.

Xususan, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan viloyatlaridan kelgan hamda Toshkent shahri va

viloyatida yashovchi fuqarolar uy-joy masalalari yuzasidan amaliy yordam so'rab senator qabulida bo'ldi.

Shuningdek, poytaxtimizning Chilonzor tumanida yashovchi X. Sobirova yer masalasi, Toshkent viloyatining Qibray tumanidan T. Turg'unboyeva esa ta'lim sohasida yuzaga kelgan muammo bo'yicha arzlari bay'on etdi.

Fuqarolarning murojaatlarini o'rganish va ularga imkon qadar joyida yechim topish maqsadida mas'ul vazirlik va idoralar mutaxassislari jalb qilindi.

"Xalq so'zi".

KUN TARTIBIDA – NODAVLAT
NOTIJORAT TASHKILOTLARINI
QO'LLAB-QUVVATLASH MASALALARI

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Muhokama

Unda nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligi, moliyaviy ko'makning maqsadli yo'naltirilishi hamda sohada shaffoflikni ta'minlash masalalari muhokama etildi.

Ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni fuqarolik jamiyati sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Ushbu Farmon asosida fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga, ularning

ijtimoiy tashabbuslarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmogda. Shu maqsadda jamoat fondi tomonidan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni amalga oshirayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga moliyaviy yordam ko'rsatilmogda.

Parlament komissiyasi majlisida bir qator tashkilotlarning hisobotlari eshitildi, ularning ish rejaları ijrosi va ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi atroflicha tahlil qilindi.

Komissiya a'zolari tomonidan kamchiliklar aytilib, faoliyatni yanada samarali yo'lga qo'yish, qonunbuzarlik holatlarining oldini olish hamda jamoat nazoratini kuchaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar berildi.

"Xalq so'zi".



Bu ulkan yutuqni, oliy ne'matni qadrlash va uni kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning burchimiz.

2024-yil 25-fevralda qabul qilingan qonun bilan tasdiqlangan Fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi mazkur sohadagi ishlarga mustahkam huquqiy asos yaratdi. Bu hujjat fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqlarini kafolatlash, O'zbekistonning dunyoviy davlat ekanini amalda ta'minlash, shuningdek, diniy sohadagi davlat siyosatining aniq maqsad va ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Ayniqsa, joriy yil 21-aprelda qabul qilingan "Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlari yanada mustahkamlash hamda diniy-ma'rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmonini ham ushbu tarixiy jarayonning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin.

Ana shu Farmonga asosan diniy-ma'rifiy sohada keng qamrovli yangilanishlar amalga oshirilmogda. Imom Buxoriy, Imom Termiziy

va Imom Moturidiy kabi buyuk allomalar nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyati, "Yetti pir" maktablarini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilayotgan e'tibor, Bahouddin Naqshband ilmiy-tadqiqot markazining tashkil etilishi – ularning barchasi millatimizga xos ma'naviy boyliklarning nafaqat ichida yashash, balki ularni dunyoga

day bilimli, bag'rikeng, zamonaviy qarashga ega insonlar kelajakda ekstremizm va radikalizmga emas, tinchlik va taraqqiyotga xizmat qiladi.

Farmon bilan davlat va din munosabatlarini tartibga solishda shaffof mexanizmlar joriy etildi. Masalan, "Haj va Umra yagona portali" hamda mobil ilovalar orqali ziyorat qilish

"Mustaqillik bizga o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqini berdi. Ammo bu huquq nafaqat rivojlanishni, balki mas'uliyatni ham talab qiladi. Jamiyatimizdagi har bir millat va elat, har bir din vakillari o'zini shu Vatanning to'laqonli a'zosi sifatida his etmog'i – istiqbolning eng katta g'alabasi."

keng targ'ib etish uchun yaratilgan sharoitlar.

Bir misol. Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasida o'quvchilar nafaqat din bilan shug'ullanmogda, balki zamonaviy fanlar, axborot texnologiyalari, huquq va iqtisodiyot asoslarini ham chuqur o'rganmogda. Bu "Jaholatga qarshi marifat" g'oyasining amaliy natijasidir. Bun-

uchun ochiq, byurokratik to'siqlarsiz xizmatlar taqdim etilayotgani zamonaviy boshqaruvning namunasi bo'ldi.

Bundan tashqari, fuqarolarning diniy e'tiqod va vijdon erkinligini ta'minlashga oid qonunlar asosida turli konfessiyalarga mansub 200 dan ortiq tashkilotlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi. Bu nafaqat inson

huquqlari, balki jamiyatdagi ishonchli muhitning yaratilishiga ham xizmat qilayapti.

Mustaqillik bizga o'z taqdirimizni o'zimiz belgilash huquqini berdi. Ammo bu huquq nafaqat rivojlanishni, balki mas'uliyatni ham talab qiladi. Jamiyatimizdagi har bir millat va elat, har bir din vakili o'zini shu Vatanning to'laqonli a'zosi sifatida his etmog'i – istiqbolning eng katta g'alabasi.

Prezidentimizning mazkur qarori ana shu mustarak bag'rikenglik muhitini yanada mustahkamlashga, aholining hamjihatlik va tinchlikka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Bu bayram – faqat tarixiy sana emas, balki kelajakda qanday mamlakat qurishimizni ko'rsatuvchi mayoq, aslida.

Davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oya asosida nishonlanmogda. Bu shior nafaqat bayramning asosiy g'oyasi, balki mustaqillik yo'lidagi islohotlarimizning mazmun-mohiyatini ifodalaydi. U xalqimizning ezgu orzu-umidlari, Vatanga muhabbati, kelajak uchun mas'uliyatini o'zida mujassam etgan ilhom manbaidr.

Tadbirlarda mamlakatimizdagi turli millat va elat vakillarining birdamligi, ijtimoiy bag'rikenglik, jamiyatda tinchlik va totuvlikni asrashga qaratilgan islohotlarning samaralari, yangi O'zbekistonning barqaror kelajagini bunyod etishda har bir fuqaroning munosib o'rni borligi haqidagi fikrlar asosiy urg'uni tashkil etadi.

Shu tariqa, "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan g'oya nafaqat bayramning shiori, balki butun milliy taraqqiyot strategiyamizning ma'naviy tayanchi sifatida jamoat ongi va qalbidagi mustahkam o'rin egallashi maqsad qilinadi.

Mustaqillik – so'z erkinligi, vijdon erkinligi, o'z fikri va e'tiqodiga ega bo'lish huquqi. Ushbu huquqlarning kafolatlangani, davlat siyosati darajasida e'tirof etilgani har bir fuqaroning iftixori bo'lishi kerak. Zero, istiqbol ayyomi zamirida marifat, ziyo, mushtarak maqsad, umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan hurmat mujassam.

Shahnoza
XOLMAHAMATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati.

Toshkent shahrida 31-iyul kuni Xitoyning eng yirik va nufuzli Kanton import va eksport yarmarkasiga bag'ishlangan taqdimot seminari o'tkaziladi.

YANGI O'ZBEKISTON ISLOHOTLARI

O'zgarishlarning beqiyos samaralari

Qalbimiz quyosh nuri kabi charog'on



Ochig'i, xonadonlarga quyosh panellari o'rnatish bo'yicha boshlangan islohotlar Orolbo'yining chekka hududlariga hali-beri yetib kelmasa kerak, deb xato o'ylagan ekanman. Qarangki, bu tashabbus mevasidan Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilidayoq bahramand bo'ldik. Uyimizga 15-aprel kuni quyosh panellarini o'rnatirdik. O'tgan shu qisqa davr ichida o'zimiz ishlatganimizdan tashqari, davlatga 600 ming so'mlikdan ziyod elektr energiyasi sotibmiz!

To'g'ri, quyosh panellarini o'rnatish xarajati ham kam emas. Lekin davlatimiz qarab turgani yo'q. Aholiga har tomonlama ko'mak beriyapti. Imtiyozli kredit ajratilyapti, soliq yukini pasaytirilyapti, hatto uni qurishda sarflanadigan moliyaviy xarajatlarning bir qismi subsidiya ajratish yo'li bilan qoplanmoqda. Masalan, uyimizga qurilgan quyosh paneli narxining 7,5 million so'mi ko'mak sifatida

hisob-kitob qilindi. Endi buni quyosh panellari to'liq o'rnatilgan birgina bizning ovulimizdagi yuzga yaqin xonadonlar misolida bu loyihaga qancha mablag' ajratilganini o'zingiz hisoblab ko'ravering. Asosiysi, bugungi kunda biz istiqomat qilayotgan "Qo'ng'iro't" ovul fuqarolar yig'ini "yashil mahalla" sifatida e'tirof etildi. Bularning barchasi davlatimiz rahbarining inson

qadrini ulug'lash yo'lida olib borayotgan xalq-chil islohotlari samarasi. Buning uchun Prezidentimizdan minnatdormiz. Qalbimiz quyosh nuri kabi charog'on, ertamiz esa bundan-da nurafshon bo'lishiga ishonamiz.

Sabit SHAUDIRBAYEV,
"Qo'ng'iro't" ovul fuqarolar yig'ini faoli.
Qo'ng'iro't tumani

Yuraklardagi aks sado



Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvi bir umr yodimdan chiqmasa kerak. Uchrashuvda yangragan har bir so'zni jon qulog'im bilan tingladim. Ayniqsa, yoshlar tomonidan bildirilgan fikr va takliflarga alohida e'tibor qaratilgani menga manzur bo'ldi.

Bunday yuksak e'tibordan deyarli hech kim, deylik, eng orqa qatordagi qatnashchilar ham chetda qolmadi. Bildirilgan masala, muammo, taklif borki, shu uchrashuvning o'zida hal bo'ldi.

Ushbu uchrashuvdan so'ng qishlog'imizga qaytgach, avvalo, bobomni yo'qlab bordim. Taassurotlarimni to'lib-toshib gapirib

berdim. O'sha paytda bobomning yuz-ko'zidagi quvonchni so'z bilan ifodalab bera olmayman. Meni bag'riga bosar ekan, "chekka bir qishloqdagi oddiy oilada o'sgan o'g'il-qizlarning ham shunday katta anjumanda qatnashgani yurtimiz yoshlariga qaratilayotgan zo'r e'tibordan dalolat", dedi.

Bobomning bu so'zlari yurtimizda biz, yoshlarga ko'rsatlayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning ota-onalar, bobo-buvilar, butun yurtodoshlarimiz ongu qalbidagi yorqin aks sadosi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Zulhayo MINGBOYEVA,
Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi bitiruvchisi.
Sirdaryo viloyati

Ishonch va erkinlik bor joyda yuksalish bo'ladi

Yurtingizdagi mehmondo'stlik, samimiyat va asosiysi, ishbilarmonlar uchun yaratilgan qulayliklarni ko'rib, investitsiya kiritish uchun O'zbekistonni tanlab adashmaganimizni angladim. Bugun O'zbekistonda ekologiya va atrof-muhit muassafoligini asrash bo'yicha innovatsion loyiha ustida ish olib boryapmiz.

Yaqinda Andijon viloyatida chiqindilarni qayta ishlash va undan elektr energiyasi ishlab chiqarishga qaratilgan mazkur loyihamizni viloyat hokimligiga taqdim etdik. Ushbu loyiha biz uchun katta ahamiyatga ega. Chunki unga 80 million dollar sarmoya kiritiladi. U amalga oshsa, kamida 150 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Bu – mahalliy aholi uchun barqaror daromad, oilalar uchun to'kin ro'zg'or degani.

Eng muhimi, ushbu zavod yiliga minglab tonna maishiy chiqindilarni qayta ishlab, tabiatni tozalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, loyiha orqali 50 mingdan ziyod aholi uchun yetarli miqdorda elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu esa yurtingizda yashovchi har bir fuqaroning hayotini yanada yengil, qulay va daromadli qilishga olib keladi.



Viloyat hokimligida bo'lib o'tgan uchrashuvda loyihamiz qo'llab-quvvatlandi va uni hamkorlikda amalga oshirish yuzasidan memorandum imzoladik. Tadbirkorlar qo'llab-quvvatlanayotgan, investorlarga ishonch va erkinlik berilayotgan yurt-ingizda faoliyat olib borish – men uchun sharafl!

Yeom Ki XUN,
"ONU H&C co.LTD" kompaniyasi bosh direktori.

Asrab-avaylanib, rivojlantirilayotgan meros

Konigil – yurtimizdagi Samarqand qog'o'zi, kulolchilik, duradgorlik va boshqa hunarmandchilik an'analari saqlanib qolgan "turizm qishlog'i" sanaladi. Bugungi kunda turizm sohasi rivojiga e'tibor tufayli qishloq infratuzilmasi yaxshilandi, binolarning tarixiy qiyofasi tiklandi. Mehmon uylari, ovqatlanish shoxobchalari faoliyati yo'lga qo'yilib, tashrif buyuruvchilarning tabiat qo'nyida sayr qilishlari uchun Siyob arig'i atrofida dam olish maskanlari qurildi. Bundan tashqari, ziyorat, agro, sanoat, tibbiyot va boshqa turizm yo'nalishlari tashkil etildi.



1995-yildan 2002-yilga qadar o'tkazilgan sinov-tajribalardan so'ng Samarqand qog'o'zi yaratilishi sir-sinoatlarini to'la o'zlashtirib, Konigil qishlog'ida "Konigil-Meros" qog'oz ishlab chiqarish hunarmandchilik markazini tashkil etdik. Hozirgi kunga qadar mazkur markazda "balx tuti" po'stlog'idan turli xildagi Samarqand qog'ozlarini ishlab chiqaryapmiz.

Bu ipak qog'oz o'zining umrboqiyiligi, silliqiligi, har ikki tomoniga ham yozish mumkinligi, suvda ivimasligi bilan shuhrat qozongan. Har kuni 100 donadan ortiq turli hajm, zichlik va ranglardagi qog'oz tayyorlanmoqda. E'tiborlisi, bu qog'oz turli kiyimlar, yo'l xaltalari (sumka) uchun ham yaxshi xomashyo. Bunday mahsulotlarni yuvib, uzoq vaqt ishlatsa bo'ladi.

Noyob mahsulot sifatida Samarqand qog'o'zi o'zbekistonlik miniatyurachi rassom va kalligrafilar uchun ham juda qo'l kelmoqda. Undan mamlakatimizda va hatto Yaponiyada qadimiy yozma bitiklar, nodir asarlarni qayta ta'mirlashda keng foydalanilmoqda.

Asosiysi, biz ishlab chiqarayotgan Samarqand qog'o'zi geografik ko'rsatkich sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgani e'tiborga molik. Bu – milliy hunarmandchilgimizning tarixiy ahamiyati dunyo miqyosida yuksalib borayotganining yorqin samarasi.

Zarif MUXTOROV,
Samarqand tumanidagi "Konigil-Meros" hunarmandchilik korxonasi rahbari.



Baraka eshigi

Sho'rchi tumanidagi Xushchekka mahallasida deyarli har bir oila yerdan unumli foydalanadi. Biz ham bir yilda 3-4-marta hosil olamiz. Asosiysi ekinimiz – bulg'or qalampiri. Bu ekin xushbo'yligi, ko'z quvnatar ko'rinishi va serhosilligi bilan ro'zg'orimizga baraka kirityapti. Chunki yilning qay fasli bo'lmasin, tomorqamizda doim hosil g'arq pishib turadi.

Ilgari faqat mavsumga qarab ekin ekardik. Imtiyozli kredit olgach, issiqxona quridik. Issiqxona degani, dehqon uchun qishloqda ochilgan baraka eshigi, rizq-ro'z manbai ekan. Dehqonchilikni tan-ladingmi, avvalo, yerga mehr berish kerak. Yer esa sohibini javob-siz qoldirmaydi. Biz, masalan, avval yerni jonlantirish uchun "Kaliforniya chuvalchangi"dan bi-

ogumus tayyorlaymiz. Bu o'g'it hosilni tez va barakali qilib beradi. Ekinga bulg'or qalampirining "Vedrana" navini tanlaymiz. Bu nav mahalliy iqlimga, kasallikka chidamli, asosiysi, hosili ko'p va bozorda xaridori tayyor. Har doim aytaman: ekin qilsangiz, bozorni ham o'ylang. Serhosil, bozorgir navni topsangiz, charchog'ingiz pul bo'lib qaytadi.

Halol mehnatning shirasi ham, barakasi ham bo'ladi. Shukrki, topganimizga oilamiz uchun zamonaviy maishiy texnikalar, zarur ji-hozlar, yengil avtomobil o'layapmiz. To'ylar qilyapmiz, uy quryapmiz. Bolalarimiz esa ta'lim-tarbiyani zamonaviy maktablarda o'lyapti. Insonga bundan ortiq baxt bormi?! Shuni to'la ishonch bilan aytamanki, davlatimizning qo'llab-quvvatlovi bilan hayotimiz to'kis, kelajakka ishonchimiz ortdi. Tomorga shunchaki yer emas, u rizq-nasiba, yorqin kelajak ekanini anglab yetdik.

O'g'iloy DAVLAYEVA,
Sho'rchi tumani

Ezgu duo ijobati

Bugun yurtimizda tibbiyot sohasi jadal rivojlanayotir. Markazdagi muassasalarni qo'ya turaylik, hatto olis qishloqlarda ham aholiga malakali yordam ko'rsatish imkoniyati yuqori. Masalan, birgina o'zim xizmat qilayotgan, tuman markazidan 17 kilometr uzoqlikda joylashgan Sho'rqo'rg'on qishlog'idagi oilaviy poliklinikani olaylik. Bu yerda aholining barcha qatlami tibbiy yuzorarga olingan. 16 mingdan ziyod fuqarolar to'liq ro'yxatga kiritilib, oilalarning har bir a'zosi sog'lig'i to'g'risida ma'lumotlar shakllantirilgan.

Ellikka yaqin mutaxassislar jam bo'lgan ikki qavatli zamonaviy maskanda 7 nafar tajribali shifokor, kasbiga sadoqatli o'nlab o'rta va kichik tibbiyot xodimlari mehnat qilaypti. Kasalliklarga aniq tashxis qo'yish, boshlang'ich davolash ishlari, hatto yengilroq jarrohlik amaliyotlari ham shu joyning o'zida bajarilmoqda. Vaholanki, bundan yetti-sakkiz yil avval qishloqda bittagina vrachlik punkti bo'lib, xizmat darajasi haminqadar edi. Qishloqda poliklinika bo'lishini esa xayolga ham keltirmaganmiz. Bugun tibbiy xizmat aholiga yaqinlashdi. Buni, aytaylik, tumanimiz qishloqlarida o'ndan ziyod oilaviy po-



liklinika va shifokorlik punktlari faoliyat ko'rsatayotgani ham tasdiqlaydi. Boshqa jihati, ishda sifat o'zgarib, profilaktika ishlari kuchaytirildi. Ilgari bemor shifoxonaga dardini aytib kelgan bo'lsa, endilikda biz xonadonlarga boryapmiz.

Xalqimiz duoga qo'l och-ganda, avvalo, yurtga tinchlik, el-ulusga tani sihatlik tilaydi. Tizimning jahon andozalariga bo'yashayotgani, aholi o'rtasida tibbiy madaniyatning mustahkamlanayotgani ana shu ezgu duo ijobatiga yo'l ochadi, albatta.

Hafizaxon BOYMIRZAYEVA,
Namangan tumanidagi 15-oilaviy poliklinika mudiri.

"Ayollar daftari"dan – tadbirkorlikkacha

Nochorman, kambag'alman, deya harakatsiz o'tirish bugun oqilona ish emas. Ichki tuyg'uga ishongan, tavakkal qilishdan cho'chimagan har bir tadbirkorni davlat, albatta, qo'llab-quvvatlamog'da.

O'zimdanda qiyos, 2023-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj sifatida "ayollar daftari"ga kiritilgandim. Yordam beramiz, endi siz davlat e'tiboridasiz, deyishdi. Bunga ko'pam ishonmadim, ammo tez orada menga 33 million so'm miqdorida imtiyozli kredit berishdi va bu pulga tikuv mashinasi, kerakli xomashyo xarid qildim. "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'ldim. Tikuvchi ko'p bo'lsa, senga kim ham "zakaz" qilardi, deguvchilar ham uchradi. Parvo qilmadim, "karvon ko'p, rizqi bo'lak", deganlaridek, ko'p o'tmay hamkorlar eshik qoqdi... Shu orada "Ustoz – shogird" an'anasida mahallamizdagi ishsiz xotin-qizlarni yoninga olib, ularga chevarlik sirlarini o'rgata boshladim. Buyurtmalar kundan-kunga ko'payib, ishlarimiz yurishib ketdi. Mahallamizdagi bo'sh turgan binoni bepul ijaraga olib, tikuv mashinalarimiz sonini 10 taga yetkazdik.

Bugun shogirdlarim 200 nafardan



o'shdi, ko'rpa, kiyim-kechak tayyorlaymiz. Xizmatimizga talab katta, shunga yarasha pul topyapmiz, ro'zg'orimiz obod bo'lyapti. Bu yil ba'zi shogirdlarimning o'zi alohida tikuvxona ochdi. Qo'limgizda jilo topgan nafis kiyim-kechaklarni qadimiy Xivamizga tashrif buyurgan sayyohlar qimmatli sovg'a

sifatida xarid qilayotgani, momomeros qadriyatlarimiz aks etgan ushbu hunarmandchilik namunalari dunyo bo'ylab tarqalayotganini ko'rib, qalbim faxrga to'ladi.

Madina ISKANDAROVA,
hunarmand.
Xiva shahri

QUTLUG' QADAMNING



– O'rindiqlar yangilaniydi, ko'cha obod va ko'rkam bo'libdi, ifor taratib turgan gullarni aytmayisizmi, daraxtlar o'zgacha ziynat bag'ishlab turibdi, – dedim. – Duodan so'ng, o'zi ham atrofga mehr bilan nazar tashladi. Keyin gazetalarni varaqlashga tushdi va menga minnatdorlik bildirdi.

– Ha, shunday chiroyli ko'chalarni ko'rib, keksaligim yodimdan chiqib ketadi, muxbir bolam, – dedi jilmayib. – Endi shunga yarasha biz ham uyimizni zamonaviy usulda ta'mirlashga kirishdik. – Keyin u darhol mavzuini o'zgartirdi. Menga ma'noli qarab, ba'zi fikrlarini ayta boshladi.

– Bilasan, televizordagi xabarlarini muntazam kuzatib boraman, gazeta – kundalik hamrohim. Lekin men Qoraqalpog'istonda, Nukusda ishlab chiqarish bu darajada rivojlanganidan bexabar qolibman shekilli. Yaqin yillargacha katta yo'lning narigi tomoni yulg'un o'sib, sho'r bosib yotardi, hozir obod manzilga aylanibdi. Qurilish mollari bozori qurilganini eshitgandim, lekin uning kengligi, mahsulotlarning turlari meni hayratga soldi. O'tgan kun o'g'limga uyni ta'mirlash haqida aytganim yodimga tushib, qurilish materiallari narx-navosini bilay-chi, deb bozorga tushdim.

Buni qara, sotuvchilar ularni mamlakatimizning boshqa viloyatlarida ishlab chiqarilgan bilan birga Qoraqalpog'istonda ishlab chiqarilganini ham ko'rsatib o'tyapti. Sementni so'radim, o'zimizda ishlab chiqariladigan ikki turi bor ekan. "Shpaklyovka", suvoq ishlari uchun burchaklar, qurilish to'rlari, universal qurilish aralashmalari, issiqlik izolyatsiyalash materiallari, "penoplast", bo'yoq materiallari va qoplamalari, xullas, uyimiz ta'miri uchun zarur bo'lgan barcha materiallar o'zimizda ishlab chiqarilayotgan ekan. Zamonaviy energiya tejamkor kutyollar, oyna va eshiklar ham Nukusdagi korxonalarda tayyorlanganini eshitib, hayratim oshdi.

Bolam, e'tirozim shu ma'nodaki, jurnalistlar bunday yangiliklarning barchasini ham yoritib ulgurmayapti, nazarimda. Yoki men aytgan

qurilish mollari ishlab chiqaradigan korxonalar ish boshlagani oddiy holga aylangandir...

Otaxon haq. Zukkoligiga qoyil qolish kerak. Yoshi ulug' bo'lsa-da, yoshlarday fikrlaydi, hamma narsaga fahmu zehni yetadi. U o'z mulohazalari bilan biz, jurnalistlarga xuddi mahorat darsi o'tayotgandek edi. Azat og'a aytganidek, hozir eng chekka tumanlarda ham har hafta yangi korxonalar ish boshlayotganini eshitaman. Yaqindagina Taxtakopir tumanida bir korxonaning qurilishiga tamal toshi qo'yilgani haqida xabar berilgandi. Kecha yana boshqa korxona ochilibdi.

Azat og'a aytganidek, barcha yangilikni keng yoritishga ulgurmayapmiz, nazarimda. Ammo buning boshqa bir sababi ham bor. Mamlakatimizda har bir hudud taraqqiyoti uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan. O'tgan yili Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti Toshkentda emas, Nukus shahrida o'tkazildi. O'shanda davlatimiz rahbari Qoraqalpog'istonga biznes uchun birorta hududda yo'q imtiyozlar paketi berilganini ta'kidlagan edi. Jumladan, so'nggi besh yilda alohida Farmon va qarorlar bilan 52 turdagi imtiyoz va yengilliklar berildi. Bundan tashqari, 50 milliard so'mdan yuqori loyihalar uchun infratuzilma yaratib berishni ham davlat o'z zimmasiga olgan.

– Ko'ryapsanmi, mana nima uchun korxonalar kun sayin ko'paymoqda. Bu Qoraqalpog'istonda biznes qilish uchun yaratib berilayotgan qulay shart-sharoitlar, amalga oshirilgan izchil islohotlar mevasi, desak, mubolag'a bo'lmaydi, – deydi otaxon so'zini davom ettirib. – Muxbir bolam, Qoraqalpog'istonda katta-kichik rahbarlar shunday ishlashi kerak-da. Shunday ishlasa, o'zgarish yuz beradi, xalq rozi bo'ladi.

Mana, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining Raisi Amanbay Orinbayevni olaylik. U xalq orasida ko'p yuradi, deyarli har kuni tumanlarda bo'lib, davlat dasturlari doirasidagi belgilangan vazifalarni keng muhokama qilish bilan birga, tadbirkorlar bilan ham uchrashuvlar o'tkazmoqda. Rasmiyatchilikdan xoli, ma'muriy binolarda emas, korxonalarga borib, tadbirkor bilan ochiq muloqotlar qilinmoqda. Shunday bo'lgach, davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar xalqqa yetib boradi-da.

Yaqindagina Taxtakopirda tadbirkorlar bi-

lan uchrashgan bo'lsa, undan keyin janubiy tumanlarda, kuni kecha Xo'jayli tumanida tadbirkorlar bilan muloqotlar o'tkazildi.

Jo'qorg'i Kenges Raisi birgina Xo'jayli tumanidagi charm-poyabzal ishlab chiqaradigan "DO'STLAR SHOES XO'JAYLI", temirdan turli xil buyumlar tayyorlaydigan "INOSTAL", qizilmiya ildizini qayta ishlovchi "EXIMCORP" korxonalari, "FARMS GAFUR GULOM" sutni qayta ishlash loyihalari hamda "LIDER-TEKS GROUP" mas'uliyati cheklangan va "Urazimbetov Raxat" oilaviy korxonasi faoliyati bilan tanishib, tadbirkorlar bilan loyihalarni yanada kengaytirish yuzasidan muloqotlar qildi.

Bunday samimiy uchrashuvlardan ko'ngil o'sadi, yaxshi g'oyalari tug'iladi. Yaxshi g'oya esa zo'r sarmoya. Shuning uchun tadbirkorlarni rivojlantirishda va aholining turmush sharoitini yaxshilash yo'lida xalq orasiga kirish, ularning dardini eshitish bugungi kun talabi. Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, tadbirkorning yutug'i bu butun xalqimizning yutug'idir.

Qishloqqa sanoat
kirib bormoqda

– Rostini aytсам, Taxtakopirdagi o'zgarishlar meni juda quvontiradi, – deydi Azat og'a. – Haqiqatan ham bir paytlar faqat chorvachilikka ixtisoslashtirilgan Taxtakopir tumanida bugun sanoat jadal rivojlanmoqda. Tumanda yangi-yangi korxonalar ta'sis etilayotgani zamirida davlatimizning beqiyos qo'llab-quvvatlovi borligini aytish lozim. Mana birgina misol. Prezidentimizning 2023-yil 8-avgustdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratishga oid ko'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosi doirasida "Taxtakopir Gold Tekstil Mahsulotlari" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga umumiy qiymati 25,4 mln. AQSH dollari bo'lgan yangi investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun 4,5 gektar yer maydoni ajratib berildi. Tadbirkorlar esa bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilishmoqda.

Ushbu loyiha asosida chekka hududlarda ham to'qimachilik va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishning yangi quvvatlari ishga tushirildi. Korxona tomonidan yiliga 5 ming tonna kalava ip tayyorlanib, yiliga 11,1 mlrd.



so'mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Korxona to'liq ishga tushishi natijasida 257 ta yangi ish o'ri ochiladi.

– Kuni kecha gazetada Taxtakopirdagi Qora oy ovulida yangi tekstil korxonasi foydalanishga topshirilgani haqidagi xabarni o'qib qoldim. Buni qara, uning mahsulotlari Rossiya va Qozog'iston davlatlariga eksport qilina boshlabdi, qoyil-yey, – deydi otaxon hayratini yashira olmay. – To'g'ri, shu kungacha Mo'ynoqda, Bo'zatovda amalga oshirilgan katta bunyodkorlik ishlari faxr bilan aytib yurgandik. Yaqinda ota yurtim – Qo'ng'irotda bir ma'rakaga borgandim, hammaning og'zida yurtimizdagi yangi o'zgarishlar, yangilanishlar... Jumladan, Qo'ng'irotda tumani hududida xalqaro ahamiyatdagi "A380" G'uzor – Buxoro – Nukus – Beynov avtomobil yo'lida sement-beton qoplamali yangi yo'l barpo etilganidan tuman ahli minnatdor bo'lmoqda. Islohotlardan xalqimiz xursand.

Aytmog'chi, o'sha ma'rakada Amudaryoga Qo'ng'irotda bilan Bo'zatov tumanini bog'lovchi ponton ko'priki qurilib, foydalanishga topshirilganini eshitib, quvonchim oshdi. Oldinlari Qo'ng'irotda bir kun borsak, Nukusga qaytib, boshqa kuni Bo'zatov va Kegeyliga yo'lga chiqardik. O'sha kuni biryo'la Qo'ng'irotdan yangi ko'priki orqali Bo'zatovga o'tib, daryoning o'ng sohilidagi yaqinlarimiz bilan ham diydorlashdik. Mana shu-da, xalqni rozi qilish yo'lidagi amaliy ishlar. Bularning barchasini,

yoziy ulgurish, gazeta sahifalariga sig'dirishning imkoniyatini topish kerak.

Darvoqe, gazetada boshqa viloyatlarda bo'layotgan shu kabi yangilanishlarga oid turkum maqolalar berib borilayotgandi. Barchasini o'qib boryapman, orada uzilish bo'lmasin deb keyingi sonlarini so'rayotgandim. Agar imkoni bo'lsa, Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlaridagi yangilanishlarni hamda Nukus shahrida ko'z o'ngimizda yuz berayotgan o'zgarishlarni yoritishni taklif etaman. Xalqni rozi qilish yo'lidagi amaliy ishlar haqida ko'proq yozish kerak, muxbir bolam. Qoraqalpog'istondagi o'zgarish va yangilanishlar, odamlar kayfiyati, orzu-intilishlari gazetada ko'proq aks ettirilsa, nur ustiga nur bo'lardi...

Biz "faol" so'zini ko'proq yoshlarga nisbatan ishlatamiz. 72 yoshga kirgan Azat og'ani faol nuroniy, desak, adashmaymiz. Uning foydali taklif va mulohazalarini tinglab, Nukusning keyingi yillardagi o'zgarishlari bir-bir ko'z oldimizdan o'ta boshladi.

Kundan-kun Nukus ham
ochmoqda chiroy...

Yigirmanchi asr oxirida yirik sanoat, ilm-fan va madaniyat markazi, do'stlik va birodarlik shahri nomini olgan Nukus bugun yanada betakror qiyofa kasb etib, ko'rkam va yashil shaharga aylanib bormoqda.

REKLAMA

ILM VA TEXNOLOGIYALAR QISHLOQ XO'JALIGIDA:

“AGRO IN VITRO” – BARQARORLIK POYDEVORI



Inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik – hayot tarzi, iqtisodiy barqarorlik tayanchi. Bugungi kunda global iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi va noaniq ob-havo kuzatilmalari dehqon va fermerlar oldiga yangi-yangi muammolarni qo'yimoqda. Barqaror qishloq xo'jaligi esa ilm va innovatsiyalarning amaliyotga joriy etilishi orqali ta'minlanadi. Aynan shu maqsadda Jizzax viloyatining G'allaorol tumanida "Agro In Vitro" innovatsion agrobiotexnologik majmua tashkil etildi. Ushbu loyiha 2023-yil 3-avgustdagi Prezident qarori ijrosi doirasida amalga oshirilgan bo'lib, 2024-yilning may oyidan ishga tushgan.

Agrar islohotlarda
ilmiy yondashuv

"Agro In Vitro" majmuasi 20,4 gektar maydonda joylashgan bo'lib, zamonaviy laboratoriya, issiqxona, ko'chatzor va onalik bog'idan iborat. Bu yerda 72 nafar mahalliy mutaxassis, jumladan, falsafa doktori (PhD) darajasidagi olimlar, biotexnologlar va laborantlar faoliyat yuritmoqda.

Loyiha doirasida 2026-yilgacha 2 mln., 2027-yilda 5 mln., 2030-yilgacha 10 mln. tup ko'chat yetishtirish ko'zda tutilgan. Bu mamlakatimizdagi ko'chat ehtiyojining kamida 5 foizini qoplashga xizmat qiladi. Hosildorlik 40 foizgacha oshishi, kasallik va viruslardan xoli bo'lishi esa uning eng katta afzalliklaridandir.

Jahon tajribasi va
mahalliy yechimlar
uyg'unligi

"Agro In Vitro" ilg'or xalqaro hamkorlik mahsulidir. "VISCON GROUP" (Niderlandiya) tomonidan MDHda yagona bo'lgan laboratoriya tashkil etilgan. "Gakon Netafim" (Niderlandiya) korxonasi tomonidan yuqori texnologiyali issiqxona qurilgan. Italiya, Ispaniya va AQSHning yetakchi agrofimalari bilan uzoq muddatli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Navlar turfaligi va sifat darajasi

bu yerda olib borilayotgan ishlariga xalqaro darajadagi yechimlar joriy etilganini ko'rsatadi: 35 turdagi danakli, 25 xil urug'li, 30 turdagi rezavor mevalar sertifikatlangan holda ko'paytirilmoqda.

Kompleks imkoniyatlari
– yangi salohiyat manbai

Majmuada innovatsion laboratoriya barcha bosqichni o'z ichiga olgan to'liq ishlab chiqarish zanjiriga ega: urug' tanlashdan to' tayyor ko'chatgacha. Ko'chatlar maxsus muhitda parvarishlanadi, avtomatlashtirilgan issiqxonalarda har bir nav uchun individual sharoit yaratilgan.

Uzum va mevali daraxtlar bo'yicha ko'rgazmali kolleksiya ham tashkil etilgan bo'lib, bu agrar ta'lim va ilmiy faoliyat uchun amaliy maydon hisoblanadi. Yilda ikki marta

mahalliy agronom va bog'bonlar uchun bepul malaka oshirish kurslari o'tkaziladi.

Innovatsiya asosidagi
bog'lar – farovonlik
omili

"Agro In Vitro" loyihasi – yurtimiz agrosanoatidagi eng muhim islohotlardan biri sifatida ahamiyat kasb etmoqda. Ilm va tabiat uyg'unligida yetishtirilayotgan ko'chatlar nafaqat hosil, balki barqarorlik, sifat va eksport salohiyatini ta'minlaydigan asosiy omildir.

Bunday loyihalar orqali O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, mintaqada agrar innovatsiyalar markaziga aylanish sari dadil qadam tashlamoqda.

Xayrulla XOLTO'RAYEV.



HAYOTBAXSH ZIYOSI



Nukus shahriga janub tomondan kiraverishda qurilgan yangi ko'priq avtomobil harakatini tartibga solish, tirbandliklarni bartaraf etish bilan birga, qadimiy kentning ramziy darvozasiga aylangan. G'uzor – Buxoro – Nukus – Beynov xalqaro avtomagistralining 652-kilometrida joylashgan ushbu ko'priq g'arbu sharqni bir-biriga bog'lovchi zamonaviy infratuzilma obyekti sanaladi.

O'zbekistonning eng asosiy madaniyat muassasalaridan biri, "Sahrodagi Luvr" nomi bilan mashhur bo'lgan muzey ham Nukus shahrida joylashgan. I. V. Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi 1966-yilda tashkil topgan va 1984-yildan shu nom bilan ataladi.

Nukus shahridagi "Oqqush" majmuasida qoraqalpog' milliy "gora uy"i, ya'ni o'tovi Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan shahardagi bunyodkorliklarga yuksak baho berilganini anglatib turibdi.

Nukus shahrida yaqin yillarda yangidan barpo qilingan 16 qavatli zamonaviy turarjoylar, yangi imoratlar bo'y ko'rsatdi. Shuningdek, yaqinda shahar markazida zamonaviy majmua qurilishi boshlangani ko'pchilikning hayratini oshirmoqda. Ushbu loyiha doirasida 78 mln. dollar investitsiya mablag'larini asosida zamonaviy 5 yulduzli mehmonxona va kongress-koll majmuasi, 22 qavatli ikkita turarjoy, shuningdek, savdo majmuasi qurilishi belgilangan bo'lib,

bugungi kunda bunyodkorlik ishlari davom etmoqda.

Odamlar yuz-ko'zida ham yuqori kayfiyat hukmron. Qisqacha aytganda, bugun Nukus jamoliga boqib ko'z to'ymaydi. U kun sayin chiroy oqib go'zal va mahobatli shaharga aylanib bormoqda. Xullas, bu yangilanishlar shaharning bir necha yillar oldingi ko'rinishi bilan tanish bo'lganlarning hayratini oshirishi, shubhasiz.

“Bunday haybatli qurilishni ko'rmagan edim”

Haqiqiy taraqqiyotni yirik shaharlarning bal-



and binolarida emas, oddiy odamlar nigohida, chekka hududlardagi turmush sharoitlarida ko'rish mumkin. Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlari boy tarix, chuqur madaniyat va salohiyatga to'la zamin.

O'tgan yilning 29-fevral sanasi – qoraqalpog'istonliklarning uzog'ini yaqin qilgan, yuraklarga yaqinlik olib kirgan tarixiy kun sifatida esda qoldi. O'sha kuni Amudaryo ustidan o'tgan Qoraqalpog'iston Respublikasini Xorazm viloyati bilan bog'lovchi 423 metrlik

temir va avtomobil yo'li ko'prigi tantanali ravishda ochildi. Avvalgi 180 kilometr aylanma yo'li, ikki soatlik yo'l azobi, ponton ko'prikdagi xatar ortda qoldi.

– Oldingi ko'priq juda eski edi, shuning uchun xalqimiz avtomobillar uchun ko'prikerakligini so'ragan va shuni kutib yurgandi, – deydi Amudaryo tumani nuroniyalar jamoatchilik kengashi raisi, "Do'stlik" ordeni sohibi Bekman ota Allaberganov. – Sakson yoshga kirib, bunday mahobatli, o'zimizning shevamizda aytadigan bo'lsam, haybatli qurilish ko'rmagan edim. Birov aytsa, afsonaga o'xshardi. Lekin bugun afsonalar haqiqatga aylandi. Qarang, ko'prikerakligini, poyezdlarni ham daryoning narigi betiga o'tkazayapti. Tumanimizga avtomobil yo'li bilan birga daryo ustidan temir yo'li ham o'tganini ko'rib, quvonmay bo'ladimi?

Yurtimizdagi bu kabi katta bunyodkorlik ishlari o'tgan davrlar bilan taqqoslayman. Sobiq ittifoq davrida ham bunday mahobatli ko'prikerakligini barpo etishga jazm etisha olmagan. Sababi, bu kabi chekka hududlarga e'tibor qaratilmagan edi. Mana, o'sha davrlarda Orol dengizi quriyotgani ma'lum bo'ldi, lekin keng ko'lamlar choralar amalga oshirilmadi.

Endi, keyingi yillarda Prezidentimizning tashabbusi bilan qurigan dengiz tubidagi qum va tuzlar ko'tarilishining oldini olish, yashil qoplamalar barpo etish borasida qilinayotgan ishlarni ko'ring... Bu yumushlarni butun dunyo hamjamiyati e'tirof etmoqda, ta'bir joiz bo'lsa, amaliy sa'y-harakatlarga tan berishayotir. Mendan hozir kim so'rasa, Prezidentimiz Qoraqalpog'istonga otalarcha g'amxo'rlik ko'rsatayotir, deb baralla aytaman.

Hozirgi kunda "A-380" xalqaro avtomobil yo'lining G'uzor – Buxoro – Nukus – Beynov yo'nalishi rekonstruksiya qilinishi – janubiy tumanlar uchun eng katta o'zgarishlardan biri. Bu yo'l nafaqat transport oqimi, balki iqtisodiyot, logistika, savdo va aholi hayot sifati uchun muhim, desak, ayni haqiqat.

Jahon banki ishtirokida Qoraqalpog'iston janubida suv resurslarini boshqarishni yaxshilash loyihasi amalga oshirilib, Bo'ston kanal rekonstruksiya qilindi. Endilikda To'rtko'l, Ellikqal'a va Beruniy tumanlarigacha ushbu kanal qurilishi natijasida 100 ming gektar maydonning suv ta'minoti yaxshilandi. Suv yo'qotilishi 48 foizdan 15 foizgacha kamayib, nasos stansiyalari soni keskin qisqardi.

Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Beruniy tumanida amalga oshirilayotgan ichimlik suvi loyihasi haqida ham quvonch bilan gapirish mumkin. Bu loyiha 2024 – 2026-yillar davomida tugallanadi, yettita obyektda ishlar tashkil etiladi, buning uchun 25 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilgan.

Ishsizlikni kamaytirish va mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida hududlarda olib borilayotgan qator sanoat loyihalari ham o'zining samaralarini bera boshladi. Bunga To'rtko'l'da 1,5 mln. dollarlik investitsiya hisobiga "Zavodxo' Agro" korxonasi ishga tushirilganini, 69 kishi doimiy ish bilan ta'minlanganini aytib o'tishning o'zi kifoya. Yoki yana bir loyiha – "YEVRO-OSIYO" MCHJ tomonidan qurilayotgan 119 xonadonli turarjoy binosini alohida tilga olish joiz.

Amudaryo tumanidagi Uyshin mahallasida "Jamolidin Jayxun" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 1 mlrd. so'mlik investitsiya hisobiga baliqchilik fermasi tashkil etilgani ham e'tiborga molik ish ekanini aytib o'tish o'rinni. "Qoraqalpog' mahsulotlari" MCHJ tomonidan 1,3 mlrd. so'mlik investitsiya hisobiga parrandachilik xo'jaligi yo'lga qo'yilgani ham hududda tadbirkorlik rivojlanib borayotganini ko'rsatmoqda. Do'stlik mahallasida joylashgan "Yangi O'zbekiston" massivida 2024-2025-yillar davomida 26 ta ko'p qavatli uy-joy qurilishi mo'ljallangan.

Ellikqal'a tumanida joylashgan "BOSTON DENIM" mas'uliyati cheklangan jamiyati jinsi materialidan tayyorlangan kiyimlar ishlab chiqarayotgani haqida eshitganmisiz? Haqiqatan ham, korxonaning birinchi bosqichida 150 ta ish o'rni ochilganidan hamma mamnun. Joriy yilda 300 ming dona tayyor shim ishlab chiqarish ko'zda tutilgan. Ularning umumiy qiymati 1,5 mln. AQSH dollarini tashkil etadi. Va Ellikqal'a jinsi shimlari xorijga eksportga chiqariladi. E'tibor bering: ilgari Qoraqalpog'istonga jinsi shimlari import qilindi, bugun esa buning aksisi... Bu – taraqqiyot, yangilanish, o'zgarish va rivojlanish mevasi.

Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlarida ham yangilanishlar bisyor. To'rtko'l tumanida "Cristall mega star" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 5 ta brend ostida kir yuvish mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda. Korxona mahsulotlari mamlakatimizning barcha hududidagi ichki bozorlarga kirib borish bilan birga

eksportga ham yo'naltirilayapti.

– Bugun Qoraqalpog'istonda bo'layotgan o'zgarishlar nihoyatda ko'p va bu haqda qancha to'lib-toshib yozsak kam, – deya so'zini davom ettiradi Azat og'a. – Gapning rostini aytsam, bu zaminda mard va tanti, mehmondost va bag'rikeng odamlar yashaydi. Ular o'zi tug'ilib o'sgan muqaddas zaminni obod etish, xalqi farovonligi, oilalar to'kinligi, hududning go'zal va betakror manzilga aylanishi yo'lida amalga oshirilayotgan izchil islohotlarga xayrixohdir.

Davlatimiz rahbarining Qoraqalpog'istonga har bir tashrifi juda qutlug' kelmoqda. Yurtboshimizning qadami tekkan joy gullayapti, yashnayapti. Yana bir jihati, u kishining e'tiboridan hech bir hudud chetda qolib ketgani yo'q. Bu qutlug' qadam qut-baraka, obodlik olib kelyapti. Qoraqalpog'iston xalqining qadimini ko'taryapti, elni mo'tabar qilyapti. Biz shunday fidoyi rahbarimiz borligidan faxrlanamiz. Shoir ta'rifi bilanidek:

Kengliklari ufqqa boshini qo'yg'an,
Saxiy quyoshi ham sochgan sehnini.
Tonglari uyg'onib sog'inin, suyg'an
Borliqqa qo'yadi yonig' mehri.
Hanuz o'qilmagan sirli doston bu,
Chorlayotgan Qoraqalpog'iston bu!

Madad berib kelgan har qadam qutlug',
Hurmatu ehtirom topdi boshidan.
Qancha ezguliklar ijrosi ulug',
Minnatdor el axir mard Yurtboshidan.
Jonajon Vatanda bir tanu jon bu,
Gullayotgan Qoraqalpog'iston bu!

Og'a-inilikda xayru hikmat bor,
Udir har kuningda suyangan tog'ing.
– Mudom qalbmidasan aziz, ulug'vor
Deya: – Ey o'zbekim, qoraqalpog'im!
Yashayotgan nurli O'zbekiston bu,
Yashayotgan Qoraqalpog'iston bu!



G'ayrat
OTAJONOV,
Qoraqalpog'iston
Respublikasida xizmat
ko'rsatgan
jurnalist
("Xalq so'zi").

REKLAMA



Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar za-
mirida inson,
uning manfaatlari, qadr-qimmati va farovon

xaёti mujassam. Ayniqsa, utgan iyl 16
dekabry kuni utkazilgan videoselektor
yig'ilishida aholi bandligini ta'minlash,
daro-mad manbalarini kupaityriish
va tadbirkorlikni rivojlantiriish
masalalariga alohida etibor qaratiladi.

Ushbu strategik vazifalar, shuningdek,
"Kamog'allikdan farovonlik sari" dasturining
amaldagi ijrosini samarali tashkil etish
maqsadida "Uzsanoatqurilishbank" ATB
tomonidan hududlarda keng qamrovli ishlar olib
borilmoqda.

MAHALLAGACHA KIRIB BORAYOTGAN MOLIYAVIY XIZMATLAR

“O'ZSANOATQURILISHBANK” FAOLIYATINING ISLOHOTLARDAGI IFODASI

Prezidentimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar za-
mirida inson,
uning manfaatlari, qadr-qimmati va farovon

bankka birlashtirilgan 712 ta mahallan-
ing har biridan yordamchi-agent jalb
qilindi.

Bugungi kunda mahalla banklari
o'z hududi imkoniyatini, u yerdagi har
bir oila sharoitini yaxshi biladigan yor-
damchi-agentlar ko'magida aholi bilan
yuzma-yuz muloqot qilib, ularni tadbir-
korlikka yo'naltirish, biznes g'oyalari
ishga tushirish, moliyaviy xizmatlardan
samarali foydalanishga undab kelmoq-
da.

Ana shu mexanizm tufayli joriy

Iqtisodiy dasturlar samarasi

– Ilgari ham biznes bilan shug'ul-
lanardim, lekin daromad doimiy
emasdi, – deydi Farg'ona viloyatining
Qo'shtepa tumanida faoliyat yurituvchi
tadbirkor Erkin Karimov. – "O'zsanoatqurilishbank"ning mahalla bankiri
ko'magida esa nafaqat ishimda unum
bo'ldi, balki 7 nafar mahalladoshimni
ish bilan ham ta'minladim. Faoliyatim

yetishtirib, oyiga 60 mln. so'm daro-
mad olapmiz. Yaqin kunlarda bu
ko'rsatkichni 2,5 tonnaga yetkazish-
ni rejalashtirganmiz.

Bu kabi bankning qo'llab-quvvatlo-
vi ostida ishga tushayotgan loyihalar
soni talaygina. Xususan, Sayxunobod
tajribasi asosida mahallalarda joriy
etilgan 16 984 ta mikroloyiha natijasi-
da 34,9 mingdan ortiq yangi ish o'rini
yaratildi. Shuningdek, tanlab olin-
gan 7 120 ta xonadonga 133,3 mlrd.
so'mlik loyiha paketlari yetkazib berildi.
Bu orqali ayrim oilalarning daromadlari
60 – 70 mln. so'mgacha oshishi ta'min-
landi.

Birgina Taxiatsoshdagi loyihada 20
mln. so'mlik kichik kredit hisobiga qan-
dolat mahsulotlari ishlab chiqarish
yo'lga qo'yildi. Loyiha tashabbuskori
Nargiza Allaberganova o'zidan tash-
qari yana 2 kishini ish bilan band qildi.
Hisob-kitoblarga ko'ra, endilikda mi-
joz bir yilda 96 mln. so'mlik sof foyda
ko'radi.

Kichik va o'rta biznes yo'nalishtidagi
dasturlar doirasida ajratilgan kreditlar
hajmi joriy yilda 1 trln. so'mdan oshishi
ko'zda tutilgan. Yanvar – iyun oylarida
bu ko'rsatkich 404 mlrd. so'mni tashkil
etdi. "Biznesga birinchi qadam" dasturi
doirasida 11,1 mingdan ziyod fuqarolar
kredit olish imkoniga ega bo'ldi.

Shuningdek, "Mahalla loyihasi"
dasturi doirasida 7 659 ta loyiha moli-
yalashtirilib, 350,5 mlrd. so'mlik kredit
ajratildi. Bu fuqarolar uchun nafaqat
moddiy yordam, balki kelajakka is-
hanch hamdir.

Tomorqalar – daromad manbai

– "Bir kontur – bir mahsulot" tamoyi-
li asosidagi sa'y-harakatlar nafaqat
qishloq xo'jaligi diversifikatsiyasida,
balki bandlik darajasini oshirishda
ham yuqori samara bermoqda, – deydi
"O'zsanoatqurilishbank" ATBning
Aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash
va tadbirkorlikka jalb qilish departamenti
direktori F. Abduvaliyev. – Ushbu yo'na-
lishda joriy yil boshidan buyon bank to-
monidan 666 gektar yer maydonida 59
ta loyiha amalga oshirildi. Jumladan,
Qoraqalpog'istondagi 59 gektar may-
donda qovun yetishtirishdan tortib,
Namangandagi olxo'ri bog'larigacha
– barchasi yuqori daromadli mahsulot-
larga qaratilgan holda, 1 ming 337 na-
far aholi ish bilan ta'minlandi. Shu bilan
birga, 9 ta "Super loyiha"da 2 ming ton-
na mahsulot qadoqlanishi, 1 600 tonna
saqlanishi va 1 ming tonnasi qayta ish-
lanishi ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy infratuzi-
lmani yaxshilash maqsadida sug'orish
va elektr ta'minotini yaxshilashga qara-
tilgan 49,1 mlrd. so'mlik loyihalar
moliyalashtirilib, minglab xonadonlar
barqaror suv va elektr ta'minoti bilan
ta'minlandi.

Har bir xonadon – mijozimiz

Bank tomonidan "Har bir xonadon
– bank mijosi" tamoyili asosida 28,6
mingdan ortiq aholiga hisob raqami

ochildi. Mijozlarning muayyan mutax-
assisliklarga bo'lgan ehtiyojidan kelib
chiqib "yangiish-mehnat.uz" platfor-
masiga 2 382 ta buyurtmanoma taqdim
etiladi.

Qoraqalpog'iston va Surxondaryo-
da xalqaro sertifikat beradigan o'quv
markazlari faoliyat boshladi. Xususan,
Nukusda xorijiy tillar va IT sohasiga ix-
tisoslashtirilgan markaz, Surxondaryo-
da esa "Japan Technological Universi-
ty" doirasida o'quv binolari qurilmoqda.
Shuningdek, bank rahbariyati ishti-
rokida joylarda aholi va tadbirkorlar
muammolarini o'rganish hamda ularning
tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash
maqsadida 756 ta uchrashuv uyushtiri-
ldi. 13,3 mingdan ziyod ishtirokchilar qat-
nashgan tadbirlarda 2 851 ta murojaat
kelib tushdi. Ulardan 2 692 tasi ijobiy hal
etilib, 3 832 ta ish o'rni yaratildi.

"O'zsanoatqurilishbank" tomonidan
amalga oshirilayotgan keng qamrovli
ishlar shunchaki raqamlar emas. Ush-
bu tashabbus, pirovardida, har bir in-
son salohiyatini yuzaga chiqarmoqda,
har bir xonadonga mo'li rizq-ro'z kirmo-
qda, mahallalarda esa yangidan-yangi
ish o'rni, ishlab chiqarish obyektlari
paydo bo'lmoqda.

Muhimi, bank tomonidan davlatimiz
rahbari boshchiligidagi ilgari surilayotgan
islohotlarni hayotga izchil tatbiq qilish,
har bir fuqaroga moliyaviy yechim tak-
lif qilish va shu orqali yurtdoshlarimiz
farovonligini ta'minlashga qaratilgan
sa'y-harakatlar faol davom ettirilmoqda.

Bank axborot xizmati.
Xizmatlar litsenziyalangan.



VORISLARGA QAYTAYOTGAN MEROS

O'ZBEKISTONNING BEBAHO MADANIY YODGORLIKLARI LONDONDA NAMOIYISH ETILDI

Bugun qadriyatlarimizni asrab-avaylash, xorijdagi madaniy yodgorliklarni izlab topish va o'rganish yangi O'zbekistonning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ana shu boy va qadimiy merosimizni asrab-avaylashga va targ'ib etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Iftixor

“Tumanli Albion”dagi oydin maqsadlar

Davlatimiz rahbari g'oyasi asosida bunyod etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan qator xorijiy mamlakatlardagi ilmiy-ma'rifiy maskanlar, tadqiqotchilar va olimlar bilan hamkorlikda turli loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ushbu markaz kontentini boyitish, ekspozitsiyalarini O'zbekiston tarixi va madaniyatiga oid eng nodir eksponatlar bilan to'ldirish bo'yicha xorijiy davlatlarga xizmat safarlari uyushtirilyapti.

Jumladan, O'zbekistondagi ko'plab olim va tadqiqotchilardan iborat hay'at bir necha bor Buyuk Britaniyadagi qator muzeylar, kutubxonalar, tadqiqot markazlarida bo'lib qaytdi.

Buyuk Britaniya dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo'lishi barobarida jahondagi eng sara madaniyat durdonalari, tarix javohirlarini o'zida jamlagan muzeylari, ma'rifat maskanlari bilan ham dong taratgan.

Britaniya muzeyi, Britaniya kutubxonasi, Viktoriya va Albert muzeyi, Bodlean kutubxonasi singari muassasalarda jahon tamaddunining nodir durdonalari, jumladan, O'zbekiston madaniy merosining betakror namunalarini saqlanadi.

Mamlakat poytaxti — London shahri o'zining yirik auktsion markazlari bilan ham mashhur. Ushbu savdo uylarida har yili Sharq xalqlari madaniy mer-

osiga oid ko'plab osoriyatqalar ham savdoga chiqariladi. Shu bois ushbu yirik savdo tashkilotlari bilan yaqin hamkorlik ma'lum ma'noda mamlakatimizga oid tarixiy ashyolar, qo'lyozmalar va eksponatlarini O'zbekistonga qaytarishda katta o'rin tutadi.

Jahonning mashhur auktsion uylarida

London'dagi “Kristis” auktsion savdo uyliga 1766-yilda angliyalik kollektsioner Jeyms Kristi tomonidan asos solingan. Parij, Milan, Moskva, Nyu-York singari yirik shaharlarda mazkur auktsion uyining vakolatxonalari bor. Osoriyatqalar kimosdhi savdosi bilan shug'ullanadigan bu kompaniya vakillari har yili 80 dan ortiq kategoriyalarda 350 dan ziyod savdolar o'tkazadi.

“Sotbis” auktsion savdo uyi ham shu yo'nalishtda faoliyat ko'rsatuvchi eng yirik savdo tashkiloti sanaladi. Mazkur savdo uyliga Londonda 1744-yilda bukinist Samyuel Beyker tomonidan asos solingan. Ayni paytda dunyoning o'ndan ortiq mamlakatlarda o'z filiallariga ega bo'lgan ushbu kompaniyaning bosh ofisi Nyu-York'da joylashgan. Auktsion savdo uyining o'rtaacha yillik savdo aylanmasi 5 mlrd. dollarni tashkil qiladi.

Joriy yil 25-apreldan 2-mayga qadar O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi delegatsiyasi “Sotbis” va “Kristis” auktsion uylarida o'tkazilgan savdolarida ishtirok etib qaytgan edi.

Dastlab ushbu savdo uylari mutasaddilari bilan uchrashuvlar jarayonida

O'zbekiston madaniy merosiga oid osoriyatqalar ro'yxati shakllantirildi. Har ikkala auktsiondan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi uchun jami 46 ta lot, 85 ta tarixiy buyum tanlandi.

“Sotbis” auktsion uyida ikki kun davom etgan savdolarida boburiylar davriga oid tig'li qurollar, islomning tarqalish davriga oid 9 ta nodir Qur'on sahifalari, o'zbek xonliklari zamonida yaratilgan kashtalar, nodir qo'lyozmalar va miniatyuralar, So'g'd, qoraxoniylar va saljuqiylar davriga oid sopol hamda kumush idishlar sotib olindi.

Shuningdek, delegatsiya vakillari tomonidan “Kristis” auktsionida sotuvga chiqarilgan nodir kitoblar, tasviriy va amaliy san'at namunalarini, xususan, Qadimgi So'g'dda to'qilgan ipak mato, saljuqiylar davriga tegishli 35 ta buyumni o'z ichiga olgan oltin taqinchoqlar to'plami, xorazmshohlar davriga tegishli kulolchilik buyumlari xarid qilindi.

Muhim ko'rgazmalar taqdimoti

Shu yilning 7-8-iyul kunlari O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi hamkorligida Londondagi “Sotbis” va “Kristis” auktsion markazlarida mazkur artefaktlarning ko'rgazmalari tashkil qilindi.

— Prezidentimiz O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashabbusini ilgari surish barobarida uning amalga oshirilishiga ham shaxsan boshchilik qilmoqda, — deydi markaz direktori Firdavs Abdullolqov. — Ushbu keng qamrovli loyiha tarixiy va ma'naviy durdonalarni Vatanga qaytarish bo'yicha davlatimiz rahbarining tegishli topshirig'i asosida uddalanmoqda. Bu faqat qadimiy artefaktlarning

qaytishi emas, balki tarixiy xotiraning, milliy o'zlikning va O'zbekistonning islom merosini asrashdagi betakror xizmatlari e'tirofi bo'ldi.

Ilk bor xalqaro jamoatchilik e'tiboriga havola etilgan eksponatlar ko'rgazmalarida dunyoning yetakchi sharqshunos olimlari va ekspertlari, mashhur muzey va kutubxonalarning mas'ul mutaxassislari, taniqli kollektsionerlar qatnashdi.

— Ushbu ko'rgazmalar O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan muhim madaniy hodisa bo'lib, yosh avlodni ilhomlantirishga qaratilgan, — dedi Buyuk Britaniyadagi “Al-Furqon” fondi direktori Sali Shahsivari. — O'zbekistonni qaytarishga yo'naltirilgan bunday amaliy qadriyatlar madaniy uyg'onish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Yirik markaz uchun munosib artefaktlar

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, poytaxtimiz markazida 10 gektardan ortiq hududda barpo etilayotgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mintaqadagi eng yirik madaniyat institutlaridan biriga aylanmoqda. Uning ekspozitsiya maydoni 8 ming kvadrat metrdan oshadi. Markaz tarkibidan “Qur'on karim” zali, “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinch va Ikkinchi Renessans”, “Yangi O'zbekiston” singari bo'limlar o'rin olgan.

Buyuk Britaniyadagi auktsion uylaridan xarid qilingan mazkur artefaktlar joriy yilda ishga tushiriladigan markazning ushbu ekspozitsion zallarida namoyish qilinadi.

— O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi bilan hamkorlik qilish biz uchun katta sharaflar, — deydi “Sotbis”

savdo uyining Sharq merosi bo'yicha vakili Benedikt Karter. — Markaziy Osiyo tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarning Vatanga qaytishiga ko'maklashganimizdan mamnunmiz.

Londonda o'tkazilgan ko'rgazmalarda so'nggi yillarda mamlakatimizda madaniy merosni asrash va ommalashtirishga qaratilayotgan ulkan e'tibor samaralari, bu boradagi xalqaro hamkorlik tobora kengayib borayotgani xususida ham so'z yuritildi. Mamlakatimizda O'zbekiston madaniy merosini tadqiq etishni istagan xorijlik olimlar va tadqiqotchilar uchun barcha imkoniyat yaratib berilishi alohida ta'kidlandi.

— Bugun O'zbekiston o'z tarixiy merosini tiklash va asrab-avaylash borasida ulkan sa'y-harakatlar qilmoqda, — deydi O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi Favqulodda va muxtor elchisi Ravshan Usmonov. — Bu yo'ldagi muhim qadam sifatida maydonga kelgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat mamlakatimiz yoki mintaqamizda, balki butun dunyoda o'z maqsad va vazifalariga ko'ra yagona ekanini bugun ko'pchilik tan olmoqda. Bu barchamizning tarixiy o'zligimizni anglash va tarannum etishga intilishimiz ifodasidir.

Ushbu ko'rgazmalar nafaqat muhim madaniy voqea, balki tarixiy adolatning tiklanishi ifodasi bo'ldi, deyish mumkin. Namoyish etilgan eksponatlar yurtimizning islom olamining intellektual markazi sifatidagi o'rini, yangi O'zbekistonning madaniy-tarixiy merosini asrash, o'rganish va targ'ib qilish yo'lidagi navbatdagi yutuqlarini amalda namoyon etdi.

Rustam JABBOROV
(“Xalq so'zi”).



“Korea Open” turnirida 7 ta medal

Koreya Respublikasining Chuncheon shahrida taekvondo WT bo'yicha kattalar o'rtasida “G2” toifasidagi “Korea Open” xalqaro turniri yakunlandi.



Musobaqaning ilk kunida 54 kg. vaznda Jahongir Xudoyberdiyev kumush, ayollar o'rtasida esa 62 kg. vaznli Sevinch Hayitova bronza medallarini qo'lga kiritdi.

Ikkinchi kun bellashuvlarida O'zbekiston terma jamoasi a'zolari — Shuhrat Salayev (-87 kg.) barcha raqibini yengib 1-o'rinni egallagan

bo'lsa, Nazarali Nazarov (-63 kg.), Yodgorbek Jo'raboyev (-87 kg.), Svetlana Osipova (+73 kg.) finalda imkoniyatni boy berdi. Diyorbek To'xtiboyev (-68 kg.) esa 3-pog'ona bilan kifoyalandi. Shu tariqa hamyurtlarimiz mazkur musobaqada 1 ta oltin, 4 ta kumush va 2 ta bronza, jami 7 ta medal jam'g'ardi.

Shaxmatchilarimizning muvaffaqiyatli yurishi davom etmoqda

AQSHning Las-Vegas shahrida shaxmat bo'yicha nufuzli “Freestyle Chess Grand Slam” turnirining uchinchi bosqichi davom etmoqda.



Musobaqada Nodirbek Abdusattorov va Javohir Sindorov oqlar guruhidan o'rin

olgan bahslarni muvaffaqiyatli o'tkazdi. Ikki shaxmatchimiz ham 7 ta o'yin yakuniga ko'ra 4,5 ochko jam'g'arib, pley-off bahslariga yo'l oldi. Nodirbek endi chorak finalda hindistonlik Arjun Erigaisiga qarshi dona sursa, Javohir mezbordan vakili Xans Niyemann bilan bahsda keyingi bosqich masalasini hal qiladi.

Qilichbozlarimiz tarkibi ma'lum

22 — 30-iyul kunlari Gruziya poytaxti Tbilisi shahrida qilichbozlik bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tadi. O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi mazkur musobaqada qatnashadigan terma jamoa tarkibini ma'lum qildi.

Vadim Anoxin, Meyrxan Timurov, Javohir Nurmatov, Muhammad Yusuf Siddiqov, Sevara Rahimova, Shahzoda Egamberdiyeva, Dilnoz Murzatayeva, Sanam Nazarova (shpagaga dasturi), Islombek Abdazov, Musa Aymuratov, Sardor Abdulkarimbekov,

Zuhriddin Qodirov, Zaynab Dayibekova, Guliston Perdiyeva, Fernanda Errera, Samira Shokirova (sablya), Ulug'bek Usmonov, Doniyor Sa'dullayev, Radmir Semeneev, Ilyas Molina (rapira) kabi sportchilarimiz dunyo birinchiligida yurtimiz sharafiga himoya qiladi.

Abdulla yana xorijda to'p tepadi



“Paxtakor” va O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi Abdulla Abdullayev yana legionerga aylandi.

Iste'dodli himoyachi BAAning “Dibba Al Fujayra” klubi bilan shartnoma tuzdi. Hamyurtimiz yangi jamoasida 8-raqamda harakat qiladi. Ma'lumot uchun aytilish joiz, 27 yoshli futbolchi o'tgan yilning yozida “Xorfaqkan” (BAA) jamoasidan “Paxtakor”ga o'tgandi. U joriy mavsum 14 ta uchrashuvda maydonga tushgan.

Sunnatilla ISLOMOV
“Xalq so'zi”) tayyorladi.

“Toshkent instituti” qo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti) MTU jamoasi universitetning O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida sobiq professori

Margarita BATIROVning

vafoti munosabati bilan marhumaning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziyaizhor etadi.

“MIKROKREDITBANK” ATB:

O'ZARO MULOQOTDAN ULKAN YUTUQLAR SARI

Bugun yurtimizda aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, yangi ish o'rinlari yaratish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Albatta, bunda “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankining ham hisssasi katta bo'lmoqda. Ayniqsa, mahalla bankiri va ularga yordamchi mahalla agentlari faoliyatining yo'lga qo'yilgani har jihatdan o'zini oqlamoqda. Aholiga xizmat ko'rsatish darajasini soddalashtirish va yangi qulayliklar yaratishda bu tizimning afzalliklari ko'p.

Moliya muassasalarida

Aynan mazkur tizim yangiliklarini banklar o'rtasida keng targ'ib qilish maqsadida “Mikrokreditbank” ATB tomonidan Xorazm viloyatidagi “Arda Xiva” majmuasida “Bankir va mahalla: bir maqsad, bir yo'l” mavzuida timbiling dasturi tashkil etildi. Bu tadbir orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlaridagi mahalla bankirlari hamda agentlarning bir-birlari bilan muloqot o'rnatishi, tajriba almashishi hamda ish faoliyatidagi yangiliklarni o'rganishi uchun imkoniyat yaratildi.



150 nafarga yaqin mahalla bankiri va mahalla agentlarini bir joyga jamlagan mazkur o'quv-seminarda bank boshqaruv raisi o'rinbosari Shahlo Ibragimova, bosh ofisning tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbar-

lari ishtirok etdi. Ikki kunlik dastur doirasida ochiq muloqotlar, foydali muhokamalar, strategik taqdimotlar, ijodiy o'yinlar va amaliyotlar o'tkazildi.

Dastlabki kun ishtirokchilar uchun “@mkb_mahallabankiri_bot” yangi-liliklari, aholi bilan muloqotda uchrayotgan muammolar va takliflar muhokamasi, “GAPIM BOR” — anonim savol va takliflar qutisi, “Mission Mahalla” keys-o'yini va “1 g'oya — 1 natija” formatidagi pitch sessiyalar o'tkazildi.

Shuningdek, tadbir davomida ishtirokchilar o'rtasida “Aholidan eng ko'p tushadigan 3 ta savol” mavzuida interfaol so'rovnomas tashkil etildi. Ishirokchilar o'z tajribalariga asoslanib, aholi tomonidan kundalik muloqotlarda eng ko'p beriladigan savollarni stikerlar yordamida “A3” formatidagi bannerda belgilab borishdi. Bu jarayon orqali mijozlarning real ehtiyojlari va ularni qiziqitiruvchi

masalalar umumlashtirildi hamda keyingi targ'ibot materiallari uchun amaliy ma'lumotlar yig'ildi. Tadbir davomida ijtimoiy tarmoqlarda faollikni oshirish maqsadida “#BirMaqsadBirYo'l” xeshtegi bilan



MKBANK

“Instagram Challenge” tashkil etildi. Tadbirning dastlabki kuni yana shu-nisi bilan esda qoldiki, bunda birinchi yarim yillikda yaxshi ko'rsatkichlarga erishgan uchta hududdagi 3 nafar eng faol mahalla bankiri va eng faol mahalla agenti taqdirlandi. Shuningdek, timbiling davomida faol ishtirok etgan qatnashchilarga ham esdalik sovg'alar ulashildi.

Timbilingning ikkinchi kunida mahalla bankirlari va mahalla agentlari Bog'ot tumanidagi eng chekka manzil — To'pchi mahallasiga borishdi. Ishirokchilar bu yerda mahalla bankiri Odamboy Yo'ldoshev va mahalla agenti Akbar Hakimov amalga oshirgan ishlar bilan yaqindan tanishish, tajriba o'rganish va fikr almashish imkoniga ega bo'ldi.

Ta'kidlash kerakki, To'pchi mahallasida 2025-yil birinchi yarim yilligida 10 ta xonadonga 344 mln. so'mlik loyiha paketlari yetkazib berilgan va 22 nafar fuqaro band qilingan. Bundan tashqari, mahallada umumiy qiymati 1156 mln. so'm bo'lgan 25 ta mikroloyiha 563 mln. so'm kredit mablag'i ajratilishi natijasida 50 nafar fuqaroning bandligi ta'minlangan.

Misol uchun, To'pchi mahallasining Qahramonlar ko'chasidagi 19-uyda yashovchi Elyorbek Qurbanbayev xonadoniga 60 mln. so'm miqdorida kredit mablag'i ajratilishi natijasida 3 bosh chorva moli, 0,5 sotix issiqxona va 70 ta parranda (jo'ja) yetkazib ber-



ildi hamda 3 ta loyiha paketi yaratildi. Buning natijasida xonadon a'zolarining 2 nafari ish bilan ta'minlandi. Ayni paytda xonadonning oylik daromadi 12 mln. so'mdan 20 mln. so'mga yetayotgani esa qoraqalpog'istonlik va buxorolik mahalla bankirlari hamda mahalla agentlarida katta qiziqish uyg'otdi.

Shu kuni ishtirokchilar ushbu mahallaning Yangi O'zbekiston ko'chasida tashkil etilgan 13 ta yengil tipdagi konteynerlar faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mazkur konteynerlar ushbu

hudud, shuningdek, qo'shni mahalla aholisiga ham barcha turdagi xizmatlarni taqdim qilishi bilan tashisiga sazovorligi ta'kidlandi.

Mazkur mahalladagi 13 ta yengil tipdagi konteyner va minifutbol maydonchasi tashkil qilinishi uchun 517 mln. so'm kredit mablag'lari ajratib berilishi natijasida 25 nafar ishsiz ayol bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, “Nodira tekstil 95” MCHJga tikuvchilik faoliyati bilan shug'ullanish uchun 100 mln. so'm kredit ajratib berildi. Tadbirkor tikuvchilik faoliyatini yo'lga qo'yishi natijasida 10 nafar ishsiz ayolni ish bilan ta'minladi va oyiga 15 mln. so'mdan daromad olib kelmog'da.

Mahallaga uyushtirilgan tajriba almashish jarayonlaridan so'ng mahalla bankirlari va mahalla agentlari uchun Xiva shahri va “Ichon qal'a” majmuasiga sayohat tashkil etildi. Sayohat davomida ular Xorazm tarixiga oid qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad mahalla bankirlari va agentlari o'rtasida jamoaviy ruhni kuchaytirish, ichki muloqotni yaxshilash, foydali tashabbuslarni joriy etish hamda xizmat madaniyatini yanada yuksaltirishdan iborat bo'ldi.

Bank Axborot xizmati.

Xizmatlar litsenziyalangan.

O'zbekiston tarixda ilk bor xalqaro “Wiki Loves Folklore” fototanlovi doirasida mahalliy axborot kampaniyasi tashkilotchisi sifatida qatnashdi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-642. 11 845 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahilaladi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbachi muharrir H. Qarshiboyev.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.00 Topshirildi — 23.45

1 2 3 4 5 6